

“Tasdiqlayman”

Hududiy adliya organi rahbari

D.T.Ahmedov



**Namangan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan yer munosabatlari yuzasidan ishlab chiqilgan hokim  
(kengash) qarori loyihasi bo'yicha**

**XULOSA**

7- avgust 2024 - yil

68-son

Namangan viloyati

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6243-son Farmoni hamda 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomga muvofiq xalq deputatlari Pop tuman Kengashining “**Pop tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yer ijarasi shartnomasini tuzish choralari ko'rish to'g'risida**”gi qaror loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilganda quyidagilar

**ANIQLANDI:**

Taqdim etilgan qaror loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining va Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 13-dekabrda 3787-IV/KQ-642-IV-sonli Qo'shma qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-15-sonli Farmon (*keyingi o'rinlarda - Farmon*)ning 5-bandiga asosan ishlab chiqilgan

Xususan, Farmonning 5-bandida 2024-yil 31-dekabrga qadar bo'lgan davrda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to'liq bo'lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, shu sabablarga ko'ra huquq **davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda** amalda foydalanib kelinayotgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini o'rganib, o'z sessiyalarida:

*ushbu yer uchastkalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi va yerdan foydalanuvchi o'rtasida yer ijarasi shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish);*

*yer uchastkasini zaxiraga qaytarish choralari ko'rish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatibergan.*

**Qaror loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilganida quyidagilar aniqlandi:**

Xalq deputatlari Ishchi guruhining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalaridan foydalanish

samaradorligini o'rganish yakunlari bo'yicha axborotida tuman hududida doimiy foydalanish huquqi bilan yer uchastkasi ajratilgan foydalanuvchilar bilan **2908,4 gektar** yer uchastkalari bo'yicha ijara shartnomasi tuzish maqsadga muvofiqligi qayd etilgan.

Shunga ko'ra, loyihaning 2-bandida ilovaga muvofiq **doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilganligi sababli** huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalaridan amalda foydalanib kelayotgan **886** nafar foydalanuvchi va tuman hokimi o'rtasida **2908,4 gektar** yer uchastkalari bo'yicha yer ijarasi shartnomasini tuzish choralari ko'rilishi aks ettirilgan.

Loyihaga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish holatini o'rganish yakunlari bo'yicha xalq deputatlari Pop tuman Kengashi Ishchi guruhi rahbari R.Saydaliyev va guruh a'zolari tomonidan imzolangan axboroti ilova qilingan.

Shuningdek, Ishchi guruh a'zolari tomonidan imzolaniib, tasdiqlangan yer uchastkalari maydoni, foydalanuvchilari va konturlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilingan.

Loyihaga ilova qilingan ushbu hujjatlarda taqdim etilayotgan ma'lumotlarni to'g'ri ekanligi kafolatlanishi Ishchi guruh a'zolari tomonidan imzolaniib tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-son Farmonining 13-bandiga ko'ra, huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha hududiy adliya organlarining ijobiy xulosasi mavjudligi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer munosabatlariga doir hujjatlarni qabul qilishning majburiy sharti hisoblanadi.

***Qaror loyahasida quyidagi xato va kamchiliklarni to'g'rilanishi lozim:***

Loyiha nomidan oldingi bo'sh qatorlarni o'chirish tashlab, loyiha nomini yuqoriroqqa chiqarish;

Loyiha 2-bandidagi "**3-ilovaga**" so'zlarini "**1-ilovaga**" so'zlariga o'zgartirish;

Loyiha 4-bandidagi har bir topshiriqni alohida qatorlarga yozish;

Loyiha 6-bandini yangi qatorga tushirish;

Loyiha ilovasidagi krill alifbosida yozilgan so'zlarni lotin alifbosiga o'zgartirgan holda yozish;

Loyiha ilovasidagi "**sahrtnoma**" so'zini "**shartnoma**" so'ziga o'zgartirish lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, taqdim etilgan qaror loyahasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha

**XULOSA QILAMAN:**

Xalq deputatlari Pop tuman Kengashining "**Pop tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yer ijarasi shartnomasini tuzish choralarini ko'rish to'g'risida**"gi qaror loyihasi Yer kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga zid emasligi, biroq qonunchilik texnikasi qoidalari asosida qaytadan ko'rib chiqilishi hamda xulosada ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilishi lozimligi qayd etilsin.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI**

160100 Namangan shahri, Lutfiy ko'chasi, 7-a uy  
Tel.: (998 69) 227-06-62, www.namangan.adliya.uz  
el. pochta: namangan@adliya.uz, namangan@minjust.gov.uz, namadliya@exat.uz

№ 7-8/168

7 - avgust 2024

**Xalq deputatlari Pop**  
**tuman Kengashiga**

Xalq deputatlari Pop tuman Kengashining **“Pop tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida yer ijarasi shartnomasini tuzish choralarini ko‘rish to‘g‘risida”**gi qaror loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilib, loyiha Yer kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga zid emasligi, biroq qonunchilik texnikasi qoidalari asosida qaytadan ko‘rib chiqilishi hamda xulosada ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilishi lozimligi ma’lum qilinadi.

**Boshqarma boshlig'i**



**D.T.Ahmedov**  
7 - avgust 2024 - yil